

DUKCHI ESHON HAQIDA TAASUROTTLAR.

O'zbekiston tuman 2-son politexnikumi

tarix fani o'qituvchisi

Salaydinova Dilafruzxon.

Annotatsiya: Dukchi Eshonning mustamlakachilik zulmiga qarshi qaratilgan qo'zg'aloni sabablari va oqibatlari qo'zg'alon yakunida Chor jallodlari qo'zg'olonchilarni beshafqat jazolash bilan birga, Tojik, Qashqar va Qutchi qishloqlaridagi xonadonlarni tamomila vayron etib, barcha oilalarni Qaqir degan cho'lga haydadi. Tub joy aholini qirib tashlash yoki surgun qilish haqida ham fikrlar bo'lgan edi. Oqposhshoning "rahm-shafqati" va "marhamati" bilan odamlar o'sha dashtda qo'nim topdi. Ular o'rinishgan joylar shundan e'tiboran Marhamat deyila boshlandi.

Аннотация: Причины и последствия Дукчи Ешана против колониального гнета. По окончании восстания царские палачи жестоко расправились с повстанцами, полностью разрушили дома в таджикских, Кашкарских и Кутчи селах и выгнали все семьи в пустыню Какир. Были также мысли об истреблении и изгнании коренного населения. По милости и милостивости Акпошши люди поселились в той степи. Благодаря местам где они поселились стали звонить.

Annotation: The causes and consequences of Dukchi Eshan's uprising against colonial oppression. At the end of the uprising, Tsar executioners brutally punished the rebels, completely destroyed the houses in Tajik, Kashkar and Qutchi villages and drove all families to the Qaqir desert. There were also thoughts of extermination or exile of the indigenous population. With the "mercy" and "mercy" of Akposhsha, people settled in that steppe. Since then, the places where they settled

were called Merhamat.

Tayanch tushuncha va iboralar: mustamlaka, murid, eshon, duk, xalfa, paxsakash, postsovet.

Sentabr oyining ilk kunlarini barchamiz mustaqillik bayrami shodiyonalari bilan boshlaymiz. Respublikamiz bo'yicha bu kun dam olish kuni deb e'lon qilingan. Bu eng ulug' va eng quvonchli bayram. Bu kunlarga yetish, bu kunlarni ko'rish ko'plab ota-bobolarimizning orzusi edi. Bu kunlarni ko'rish ularga nasib etmadi.

Mustamlakachilik zulmini ko'rgan har bir xalq singari Turkiston aholisi ham o'z mustaqilligini kutib, qo'l qovushtirib o'tirmagan. Balki ozodligi, erki, sha'ni uchun ham kurash olib borgan. Garchi bu kurashda qurol-yarog' borasida ancha orqadaligini, harbiy malakaga ega emasligini, askarlar soni kamligini va yengilishini bilsa ham kurash olib borishdan to'xtamagan. Mustaqillik uchun o'z jonlarini, safdoshlari hayotini xatarga qo'yib kurashga bel bog'lagan. Shunday unutilmas, vatan uchun yurt mustaqilligi uchun harakat qilgan fidoyi qahramonlardan biri Andijon qo'zg'aloni boshchisi Muhammadali xalfa Sobir o'g'lidir. U xalq orasida Dukchi Eshon nomi bilan muvaffaqiyat qozongan. Dukchi Eshon mustamlakachilik zulmidan aziyat chekib holdan toygan, ezilgan, g'ururi toptalgan, haq-huquqsiz xalqni ozodlik, erklik uchun kurashga boshlagan. Turkistonni mustaqil, erkin va farovon davlat bo'lishini orzu qilgan va bu yo'lda mustamlakachilarga qarshi kurash olib borgan. Dukchi Eshon shaxsiga to'xtalsak, 1856-yil Farg'ona viloyatining Chimyon qishlog'ida, o'rta hol dehqon va hunarmand Muhammad Sobir xalfa oilasida dunyoga kelgan. Ajdodlari asli qashqarlik bo'lgan. 10 yoshlarida ota-onasi bilan Mingtepa (hozirgi Andijon viloyati Marhamat tumani hududi) yaqinidagi Tojik qishlog'iga ko'chib kelishgan. Muhammadali xalfa Sobir o'g'li ilk savodini mustaqil o'qib, islom ilmini, arab va fors tillarini o'rgangan. Samarqandda diniy eshonlar xizmatida yurib, 1876-yilda akasi Muhammadsoqi bilan Poytug'da yashovchi nufuzli ulamo

Sultonxon to'ra eshon xizmatiga kirib, uning eng yaqin shogirdiga aylangan. Paxsakashlik va duk (yik)chilik bilan shug'ullangan, tabiblik hamqilgan. 1882-yilda Sultonxon To'ra eshon o'limidan so'ng marhumning vasiyati bilan uning o'rniga Muhammad Ali eshon etib tayinlanadi. Muhammad xalifa Sobir o'g'li 1886—1988-yillarda Makkaga borib, haj amalini bajargan. Qaytishda Eron, Hindiston, Afg'oniston va Rossiyaning qator shaharlarida bo'lib, zamonaviy bilimlar va Yevropa fan-texnikasi yutuqlari bilan tanishadi. Muhammad Ali ota kasbi yikchilik ya'ni dukchilik bilan shug'ullanadi. Shuning uchun ham unga Dukchi Eshon deb nom berishgan. Dukchi Eshon fe'l-atvori yaxshi, keng fe'l, kamtarona hayot kechiruvchi, ko'p yillik hayotiy tajribaga ega, dunyoqarashini kengligi uning atrofida xalq ommasini ko'payishiga, xalq ishonchini qozonishga va uni qo'llab quvvatlashlariga yo'l ochgan. Dukchi Eshon yashayotgan Mingtepa qishlog'iga turli qishloq va ovullardan odamlar ziyorat uchun kela boshlaydi. Diniy bilimlarini yanada mustahkamlagan. Tasavvuf ilmidan ham xabardor bo'lgan. Turkiy tilda „Ibrat ulg'ofiliyn“ („G'ofillar uchun ibrat kitobi“) asarini yozgan. Asar pandnasihat tarzida bo'lib, tasavvuf g'oyalari targ'ib qilingan. Shundan bilishimiz mumkinki Dukchi Eshon savodsiz inson bo'lmaganligini. Muhammadali xalifa Sobir o'g'li Asaka, Shahrixon, Marg'ilon, O'sh aholisi, xususan, chorvador qavmlar o'rtasida obro'-e'tiborli bo'lgan. Bu vaqtda uning minglab muridlari bor edi. 1879-yilda u turk sultoni Abdulhamid II ga maktub yozib, Farg'ona vodiysida Rossiya imperiyasi yuritgan mustamlakachilik siyosatini qoralaydi va diplomatik yo'llar orqali Rossiya imperatori Nikolay II ga ta'sir qilishini so'raydi. Bu davrda rossiya imperiyasining mustamlakachilik zulmi tobora ortib borayotgan edi. O'lkadagi mustamlakachilik siyosati tufayli keng mehnatkashlar ommasi g'oyat qashshoqlashibgina qolmay, milliy va diniy qadriyatlar ham oyoq osti qilina boshlangan edi. Mahalliy aholi huquqsizlik, zulm va zo'ravonlikdan azob chekardi. Tarixchi-adib Fozilbek Otabek o'g'li 1926-yili chop etilgan „Dukchi eshon voqeasi“ kitobida „Shahar xalqi zolim hokimlar zulmidan bezor bo'lib ko'chaga chiqolmay qolgandek tog'lardagi qirg'izlar ham ot, mol, qo'y, echkilarini bermalol boqolmay, bir tarafdin: cho'p, og'iz puli deb jarima

solib, pullarini olsa, ikkinchi tarafdin “tuyoq puli” deb qo‘ylarini tortib oldi. Uchinchi yoqdan rus mujiklari “ekinimga kirdi” deb mollarini “shtraf” qilib olib qo‘yardi”, deb yozadi.

Pichoq suyakka yetgan kunlarda tog‘lik qirg‘izlar Dukchi (yikchi) Eshon nomi bilan tanilgan mingtepalik Muhammadali xalfa Sobir o‘g‘liga “Ijzat bersangiz, hamma qirg‘izlar yig‘ilib, mujiklar ustiga hujum qilib, barini oyoq ostida bostirib yuboramiz. Butunlay jonimizdan to‘ydik. Bu yurganimizdan o‘lganimiz yaxshiroq. G‘azotga ruxsat bering”, deya murojaat qilishadi. O‘sha paytda Farg‘ona muzofotida kamida 20 ming muridi bo‘lgan Eshon ulardan shoshmay turishni so‘raydi.

Xalq noroziligining jilovlab bo‘lmaydigan darajada kuchayib ketganligini ko‘rgan Muhammadali xalfa Sobir o‘g‘li Farg‘ona vodiysining turli hududlari va chekka qishloqlaridan kelgan insonlar ishtirokida maxsus kengash o‘tkazadi, bu kengashda qo‘zg‘alon ko‘tarish masalasi muhokamaga qo‘yiladi. Xalq ommasi mustamlakachilik zulmiga qarshi ommaviy qo‘zg‘alon ko‘tarishga va bu qo‘zg‘alonga Muhammadali xalfa Sobir o‘g‘li rahbar bo‘lishiga kelishib olingan edi. Dukchi Eshon qo‘zg‘alonga hali vaqt borligini, qurol-aslaxa va kurashuvchilarni jamlab olishni tushuntiradi. Mustamlakachilik choxiga tushgan Turkistonda chor amaldorlarining zulm va tazyiqi zo‘rayib, xalqni ezib, xo‘rlash, misol uchun ko‘chadan mirshabo‘tib qolsa, o‘rnidan turgan holda salom bermaganligi uchun ham kaltaklash holatlari, qamash odatiy holatga aylanib qolgan edi. Mustamlakachilik zulmidan aziyat chekayotgan xalq ommasi g‘azabga berilib, uyushmagan, jang rejasisiz 1898-yil 17-may kuni ochiqdan-ochiq qo‘zg‘alon ko‘tarishni boshlaydi. Qo‘zg‘alonchilar Andijon harbiy lageriga hujum qilishdan kurashni boshlab yuborishadi. Rus gornizoniga hujum qilib, 22 askar o‘ldiriladi va ko‘plab rus askar va zobitlarini yarador qiladi. Shunday bo‘lsada kuch mustamlakachilar tarafida edi. Qo‘zg‘alonchilar qanchalik kuch bilan harakat qilmasin rus askarlarida harbiy qurol aslaxa, harbiy mahorat yetarli bo‘lgan. Qo‘zg‘alonchilarda esa bunday imkoniyatlar kam bo‘lgan. Shu kabi sabablar tufayli qo‘zg‘alonchilar hal qiluvchi janglarda mag‘lubiyatga uchray boshlaydi. Isyon Andijon, O‘sh va Marg‘ilonda bir

paytda boshlanishi kerak edi. Reja o'xshamay, Andijon uyezdiga qarashli Mingtepa, Tojik, Qashqar qishloqlari kutilmaganda ko'tarilib ketdi. Ushbu hududlarda yashovchi jami fuqarolar, xususan, o'zbeklar, tojiklar va qirg'izlar Eshon istiqomat qiluvchi Mingtepaga to'plandi. Dukchining o'shanda xalqqa qilgan murojaatida musulmonlarni kofirlardan xalos etish vazifasi o'z zimmasiga tushgani aytilib, hammani g'azovotga da'vat etadi. Hududni ruslardan tozalash va ilgari mustaqil bo'lgan Qo'qon xonligini tiklashni maqsad qilgan Muhammadali „muqaddas urush“ga odamlarni chaqirdi va chor Rossiyasiga 2000 kishi bilan qarshi chiqdi. Ammo uning qo'shini Andijon shahridan shahar tashqarisida rus 20-chi qator bataloni tomonidan to'sildi va mag'lubiyatga uchradi. O'sha 2000 kishidan 546 nafari sudga tortildi. 19-mayda kechqurun Muhammadali xalfa Sobir o'g'li qo'lga olinib, 5 ta yaqin safdoshi bilan Andijonda dorga osilgan.

Hukm qilinganlarning aksariyati Farg'ona vodiysi va hozirgi Qirg'iziston janubidagi Chotqol, Aqsi va Ketmen-To'bedagi tog'li hududlardagi qirg'izlar edi. Ular orasida taniqli shoir-improvizator va bastakor To'qto'g'ul Sotilganov (1864-1933) ham bor edi, u siyosiy dushmanlari tomonidan qo'zg'olonda ishtirok etganlikda ayblanib, Ketmen-To'be vodiysida soxta ayblov bilan zindonga tashlangan va 1905-yilda Irkutsk shahri yaqinidagi Kuitun qishlog'idagi Sibir qamoqxonasidan qaytib kelgan.

Dukchi Eshonning 81 yoshlik onasi Asalbibi, oila a'zolari — Tojibibi Maqsudhoji qizi va uning ikki qizi Ne'matposhsho va Hamrobibi, Isnorabibi Abdujalil qizi va uning o'g'li Abdujalil, Ruqiyabibi Ismoil qizi va uning o'g'li Abdurahim, shuningdek, akasi Muhammadsoqi va uning o'g'li Musurmonqul Penza guberniyasiga 6 yilga Penzaga surgun qilingan. Eshonning mol-mulki, jumladan 755 ta nodir qo'lyozma kitoblari musodara qilingan. Mingtepa qishlog'i to'plardan o'qqa tutilib, o'rnida rus erkaklari uchun „Russkoye selo“ qasabasi (posyolkasi) qurilgan. Andijon qo'zg'oloni mustamlakachilik zulmiga qarshi bo'lsa ham, Muhammadali xalfa Sobir o'g'li boshchiligidagi qo'zg'olonchilar diniy g'oyalar (jihod va g'azovot) bilan maydonga chiqishgan edi.

Dukchi Eshon boshchiligidagi Andijon qo'zg'oloni Chor Rossiyasi ma'murlari va harbiylari tomonidan bostirilib, Mingtepa o'lkasi yakson qilinib, xalqi qatliom etilib, uylari, masjid-madrasalari buzib tashlanib, shaxsiy kutubxonasida mavjud bo'lgan 300 ga yaqin diniy va dunyoviy asarlarni, shu jumladan, „Ibrat-ul g'ofiliyn“ asari va unga kiritilgan ko'plab g'azallari-baytlari, shuningdek, shaxsiy mirzosi bo'lgan „Osiy“ taxallusi bilan ijod qilgan muridi tomonidan yozilgan 168 varaqdan iborat „Dukchi Eshon maqomati“ asari musodara qilingan bo'lsa-da, ularning barchasi hozirgacha yetib kelgan. Andijon qo'zg'oloni O'rta Osiyodagi postsovet tarixshunosligida Farg'ona vodiysida mustaqil davlat barpo etishni maqsad qilgan chorizmga qarshi ilg'or harakat sifatida ta'riflangan. Dukchi Eshon qo'zg'oloni mahalliy xalq ommasini zo'ravonlik va zulmga qarshi birlashib harakat qila olishini yaqqol ko'rsatib bergan. Sovetlarga qarshi milliy ozodlik harakatlarini birgina buyruq, qat'iy intizom va choralar bilan to'xtatib bo'lmasligini isbotlab bergan. Hozirgi mustaqil, dorul omon kunlarga yetishishimiz yo'lida juda ko'p bobolarimiz jonlarini fido qilishgan. Vatan ozodligi, yurt tinchligi yo'lida o'z jonlarini fido qilgan vatandoshlarimiz biz uchun doimo o'rnak va xotirasi mangudir.

Foydalanilgan manbalar:

1. „Dukchi Eshon: Tarix va haqiqat yoxud tunni yoritgan chaqmoq“ (2022-yil 8-avgust). Qaraldi: 2023-yil 8-avgust.
2. O'zme. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil